

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT FAKULTETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338+658:3

SOBIROV FAXRIDDIN FAZLIDDIN O‘G‘LI

**SANOAT TARMOQLARIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

70310102– “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar) mutaxassisligi bo‘yicha

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**


DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. B.Salimov


TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiyasi “Yashil” iqtisodiyot kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan. 39-sonli bayonnoma «26» aprel 2024 yil.

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. B.Salimov



imzo 2.05.2024
sana

Magistr: F.Sobirov


imzo 2.05.2024
sana

Dissertatsiya ishi “Iqtisodiyot” fakultetida 2024-yil “20” 05
№ 7/01 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Yashil” iqtisodiyot kafedrası
mudiri, professor I.Xotamov 
“07” may 2024-yil

Himoya 2024 yil “20” 05 soat 14⁰⁰ da “Texnopark” mas’uliyati
cheklangan jamiyatda bo‘lib o‘tadi.

Magistrlik dissertatsiyasida sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati nazariy jihatdan ochib berilgani; sanoat korxonalarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar tizimga solingan holda ochib berilgani; sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish samaradorligini oshirish yo'nalishlari aniqlangani; ishlab chiqarishni modernizatsiyalash orqali sanoat tarmoqlari samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgani; tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish va diversifikatsiyalash asosida sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganida namoyon bo'lgan.

Sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali tarmoqni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, ichki va tashqi bozorda milliy mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish hozirgi kundagi islohotlarning eng muhim ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Калит сўзлар: kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy xom ashyo resurslari, milliy mahsulotlarining raqobatbardoshli.

The importance of developing small business and private entrepreneurship in industrial sectors is revealed theoretically in the master's thesis; that the main factors affecting the development of industrial enterprises are revealed in a system; directions for improving the efficiency of small business and private entrepreneurship development in the production of industrial products have been determined; proposals and recommendations on ways to improve the efficiency of industrial sectors by modernizing production; It was manifested in the development of proposals and recommendations on ways to increase the competitiveness of industrial enterprises based on the deepening and diversification of structural changes.

Development of small business and private entrepreneurship in industrial sectors, first of all, further modernization and diversification of the sector by transferring it to a qualitatively new stage aimed at rapid development of production of finished products with high added value based on deep processing of local raw resources, food Increasing the economic efficiency of the food industry and gradually reducing the monopoly in the market of products and services, mastering fundamentally new types of products and technologies, and increasing the competitiveness of national products in the domestic and foreign markets are the most important priorities of the current reforms.

The political, economic and organizational aspirations of all countries are expressed in the description of their economic integration, that is, economic integration. There will be opportunities for rational use of natural, labor and financial resources of countries, as well as all achievements of science and technology.

Key words: small business, development of private entrepreneurship, local raw material resources, competitiveness of national products.

MUNDARIJA

I BOB.	KIRISH.....	8
1.1.	Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2.	Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
1.3.	Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4.	Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	11
1.5.	Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6.	Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
II BOB.	ADABIYOTLAR SHARHI.....	12
2.1.	Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqot natijalari.....	12
2.2.	Tadqiqot gipotezasi.....	18
III BOB.	TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	22
3.1.	Ma'lumotlar manbalari.....	22
3.2.	Tadqiqot dizayni.....	22
3.3.	Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar.....	23
3.4.	Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	23
3.5.	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	24
3.6.	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	24
IV BOB.	TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR.....	24
4.1.	O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	24
4.2.	Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari va faoliyati ko'rsatkichlari tahlili.....	31
4.3.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	38
4.4.	Toshkent viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari.....	60
V BOB.	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	65
5.1.	Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari.....	65
5.2.	Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	66
5.3.	Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar.....	69
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	70

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

So‘nggi yillarda sanoat sektorini rivojlantirish, bu tarmoqlarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini keng jalb etish orqali ishlab chiqarishni ustuvor rivojlantirish va texnik-texnologik yangilashga alohida e‘tibor berilmoqda. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida berilgan “29-maqсад: Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish” ga qaratilgan talablaridan kelib chiqib, 2026-yil borib tadbirkorlik sub’ektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish. Hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish. Tadbirkorlik sub’ektlari o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma‘lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish¹.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan AQSh, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. «Xalqaro kichik biznes Kengashi (ICSB) ma‘lumotlariga ko‘ra, kichik biznes sub’ektlari barcha korxonalarining 90% dan ortig‘ini, ish bilan band bo‘lganlarning 60-70% ni, yalpi ichki mahsulotning 50% ni tashkil etadi².

Dunyo davlatlari tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot hamda barqarorlikni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>.

² MSME Day 2019. <http://www.intracen.org/MSME-day/2019>.